



RISKNI BOSHQARISH KORXONALARNI RIVOLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Maxmudova Nodiraxon Jumaboy qizi

Farg'ona politexnika instituti katta o'qituvchisi
maxmudovanodira@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13928308>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05- Oktyabr 2024 yil
Ma'qullandi: 08- Oktyabr 2024 yil
Nashr qilindi: 14- Oktyabr 2024 yil

KEY WORDS

risk, ehtimollik, xavf, og'ishlar, riskni boshqarish, risk funksiyalari, risk sabablari, riskni boshqarish afzalliklari

ABSTRACT

Maqolada xo'jalik subyektlari faoliyatida duch kelayotgan risk tushunchasining zamonaviy nazariy talqini, mazmuni va uni ta'riflashdagi yondashuvlar yoritilgan. Tashkilotlardagi risk sabablari, ko'rinishlari va ularni boshqarishning afzalliklari ilmiy jihatdan asoslangan hamda risk funksiyalarining ijobiy jihatlari keltirib o'tilgan.

Hozirda korxonalar risklarini boshqarishning mavjud tizimlari foyda olish va biznes yo'qotishlarini kamaytirish o'rtasidagi zarur muvozanatga erishishga qaratilgan bo'lib, kompaniyaning umumiy siyosatiga integratsiyalashuv orqali korxonani boshqarish tizimining ajralmas qismiga aylanishga chaqiriladi. Shu bilan birga, risklarni boshqarish cheklangan resurslardan foydalanish imkoniyatini belgilaydigan boshqaruv qarorlariga bir nechta alternativlar mavjud bo'lganda risklarni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy risklarni boshqarish quyidagi maqsadlar doirasida korxonalar madaniyati va infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan:

- 1) risklarning asosiy omillari va sabablarini aniqlash;
- 2) korxonalar risklarini aniqlash, tahlil qilish va baholash;
- 3) riskni baholash asosida qaror qabul qilish;
- 4) risklarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish;
- 5) riskni maqbul darajaga tushirish;
- 6) korxonaning riskka qarshi dasturini amalga oshirishni tashkil etish;
- 7) riskni kamaytirish bo'yicha rejalashtirilgan chora-tadbirlarni nazorat qilish;
- 8) risk to'g'risida qaror qabul qilish natijalarini tahlil qilish va baholash.

Risk ma'lum sinergik va multiplikativ ta'sirga ega tizimli fanlararo kategoriya sifatida tabiiy fanlar (tibbiyot, fizika, biologiya, kimyo va boshqalar) va gumanitar yo'nalishdagi (siyosatshunoslik, tarix, ilohiyot va boshqalar) ko'plab fanlarda paydo bo'lgan. Iqtisodiyot fanlari sohasi ham bundan mustasno emas. Uning fanda paydo bo'lishi va rivojlanishi qadimgi antik dunyoda "risk" tushunchasining mohiyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Ilmiy nuqtai nazardan risk kategoriyasining birinchi tizimli tadqiqotchilaridan biri fransuz faylasufi, matematigi va ixtirochisi B. Paskalni tan olish mumkin, u 1654-yilda o'z tadqiqoti uchun matematik P.Fermaga yordam so'rab murojaat qilgan. Ushbu hamkorlikning

natijasi ehtimollik nazariyasi bo'lib, kelajakni miqdoriy bashorat qilish imkonini berdi [1]. Keyinchalik, 1730 yilda A.De Muavr o'zining normal taqsimlash tuzilmasi va risk o'lchovini (standart chetlanish) taklif qildi va D.Bernulli turli darajadagi boylikka ega odamlar bir xil moliyaviy riskga turlicha munosabatda bo'lishini ta'kidladi [1].

Erkin raqobat sharoitida tadbirkorlikning risk darajasi va rentabelligi o'rtasidagi bog'liqlikni tavsiflash masalalari A.Smit va D.Rikardoning ilmiy ishlarida atroflicha ko'rib chiqilib, ular risk darajasining o'sishi bilan bir qatorda foyda ham oshib borishini, lekin asta-sekin foyda risk darajasidan orqada qolishini ta'kidlagan. 1920-yillarda Amerikalik olim F.Naytning ta'kidlashicha, iqtisoddagi risk hodisasi ancha murakkab va xilma-xil bo'lib, risk har doim ham ehtimollik bilan boshqarilmaydi [2].

1940-1980 yillarda. risklarni prognozlash va monitoring qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijalari amaliyotda faol qo'llanila boshlandi. 1940-yillarning oxiridan boshlab. tadqiqotlar sug'urta faoliyati va texnogen risklar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qila boshladi, birinchi milliy va xalqaro uyushmalar va institutlar paydo bo'ldi, ularning doirasi tijorat faoliyatidagi risklarni baholash va tartibga solish bilan bog'liq edi. 1955 yilda Amerika Templ universitetidan sug'urta professori V. Snayder "risklarni boshqarish" atamasini ilmiy muomalaga kiritdi va 1956 yilda R.Gallager birinchi marta "risk menejeri" kasbiga ta'rif berdi.

Ko'pgina izohli lug'atlarda riskning to'liq antonimik ta'rifini ko'rish mumkin. Masalan, C.И. Ожегова riskni "baxtli hodisa umidida omad uchun harakat" deb hisoblasa, Webster buni "xavf, zarar yoki yo'qotish ehtimoli" deb biladi.

Jadval 1.

Risk atamasiga zamonaviy yondashuvlar (muallif ishlanmasi)


Mualliflar	Atamaning mazmuni
Granaturov V.M.	Risk- bu noxush oqibat yoki uning yuzaga kelish ehtimoli emas, balki asosiy, muhim xususiyati tizimli noaniqlik bo'lgan faoliyatning xususiyatidir [3]
Makarova N.N.	Risk o'zida mumkin bo'lgan resurslarning yo'qotilishi yoki daromadlarga erisha olmaslikni ko'rsatadi [4]
Zirchenko L.A.	Risk ostida globallashuv natijasida yuzaga keladigan tashqi va ichki jarayonlar va hodisalarning umumiyligini tushuniladi, bu esa tadbirkorlik tuzilmalaridan yo'qotishlarni minimallashtirish va mumkin bo'lgan foydalarni ko'paytirishga qaratilgan noaniqlik sharoitidagi boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi [5]
Sevruk V.T.	Risk - bu har qanday yuridik shaxs, shu jumladan moliya sektori subyekti faoliyatining xarakteristikasi bo'lib, faoliyat natijalarning noaniqligi va muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlardan iborat [6].
Ivanov A.A.	Risk ostida aniq belgilangan vaqt davomidagi kuzatishlarda strategik maqsadlarga erishish uchun salbiy ta'sir qiladigan barcha ichki va tashqi sharoitlar tushuniladi [7].
Baldin K.V.	Risk ma'lum darajadagi zararlarni yuzaga kelish ehtimolligi chastotasi bilan o'lchanadi [8].

Mutaxassislar tomonidan keltirilgan ta'riflar va qarashlardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy

adabiyotlarda riskni aniqlashning uchta uslubiy yondashuvi mavjud: moliyaviy natijalar nuqtai nazaridan, voqealarning rejalashtirilgan harakatdan chetga chiqish nuqtai nazaridan, salbiy hodisaning paydo bo'lish ehtimoli nuqtai nazaridan.

Korxonadagi risklarni boshqarish jarayoni ko'p o'lchovli va ko'p vazifali bo'lib, u identifikatsiyalash, risklarni tahlil qilish va risk hodisalarining ijobiy oqibatlarini aniqlash va salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun qaror qabul qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Tashkilotda riskning paydo bo'lishi ikkita asosiy sababga bog'liq, tashqi biznes muhiti sharoitlarining noaniqligi, shuningdek, taqchillikning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatadigan tashkilotning cheklangan resurslari (2-rasm).



2-rasm. - Tashkilotdagi risk sabablarining tavsifi

Risklarni boshqarish risk bo'yicha menejerning yoki rahbarning asosiy savollarga javob berish qobiliyatiga asoslanadi, fikrimizcha, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida riskning mohiyati va tabiatini aniqlash;
2. Risklarni boshqarishdan asosiy maqsadlarni aniq bilish;
3. Risklarning tashkilotning asosiy biznes jarayonlariga ta'sir darajasining xususiyatlari;
4. Imkoniyatlar tavsifi va riskni kamaytirishning istiqbolli usullari.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda korxonalarda risklarni boshqarish tadbirlarini izchil va samarali yo'lga qo'yish asosida quyidagi natijalarga erishish mumkin.

Taniqli lug'atshunos S.Ojegovning rus tili lug'atida "risk - bu muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisadan umid" ma'nolarini anglatadi deyilsa, mashhur Vebster lug'atida "risk - bu xavf, zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli", deb ifodalangan [9].

Professor V.Usoskin "risk doimo noaniqlik bilan birga kelib, oxirgi, o'z navbatida oldindan ko'ra bilish qiyin yoki mumkin bo'lmagan voqealar bilan bog'liq bo'ladi", deya izohlaydi. Ye.Stoyanova fikricha: "risk - bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola bilmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolidir"[9].

Risk to'g'risidagi fikrlarni umumlashtirilgan holda prof V.V. Kovalyov quyidagicha ta'rif berib o'tadi:

Risk bu moliyaviy yo'qotish darajasini belgilab:

- a) qo'yilgan maqsadga yetib bormaslik;
- b) noaniqlik holatda natijani belgilash;
- v) subyektiv holatda belgilangan natijani baholash.

A.O'lmasov, A.Vahobovlarning "Iqtisodiyot nazariyasi" darsligida "tadbirkorlik riski - bu firmaning ko'zlagan maqsadiga erishish yo'lida u duch keladigan iqtisodiy xavf-xatardir" [10], deya talqin etilgan. Kichik biznes

faoliyatining har qanday turi bilan shug'ullanish risk bilan bog'liqdirki, shu boisdan riskning bu ko'rinishi tadbirkorlik riski deb ham ataladi.

Fikrimizcha, riskning kamdan-kam holatlarda ijobiy natijalarga ham xizmat qilishini hisobga olgan holda unga quyidagicha umumiy ta'rif berish o'rinlidir:

Risk – oldindan belgilangan muayyan rejalardan chetga chiqishi, ya'ni zarar yoki foyda keltirishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlarning sodir bo'lish ehtimolligi.

Riskning muhim elementlaridan biri ham bu tanlangan maqsaddan chekinish ehtimolini borligidir. Bunday holdagi farqlanish ijobiy va salbiy xislatda bo'lishi mumkin.

Riskning muqarrarligi, ya'ni har qanday iqtisodiyotga xosligi uning oldini olish yoki cheklash mumkin emas degan mazmuni bermaydi. Hamma narsa riskni firma qanday boshqara olishida qoladi. Riskning naqadar boshqarilib turishi firmalarning unga qanday munosabatda bo'lishlariga bog'liq.

Riskni iqtisodiyot subyektlariga, korxonalariga keltiradigan salbiy oqibatlaridan tashqari ijobiy jihatlari ham mavjudligini inobatga olib, uning quyidagi funksiyalarini ko'rsatib o'tish o'rinlidir [4]:

- Innovatsion funksiya;
- Tartibga solish funksiyasi;
- Himoya funksiyasi;
- Tahlil funksiyasi.

Riskning innovatsion funksiyasi korxonalar yoki boshqaruvchilar oldida turgan noan'anaviy qaror qabul qilish usullarini izlashda namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, korxonalar faoliyatini barqarorlashtirish yoki kengaytirish maqsadida turli innovatsiya shakllarini jalb qilish ham riskli qarorlarni qabul qilish asosida amalga oshirilmoqda. Zero, riskli bo'lsada innovatsion qarorlar samarali ishlab chiqarishga olib boradi.

Tartibga solish funksiyasi ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: konstruktiv, destruktiv. Konstruktiv shaklda risk eskicha, bir xil qolipda fikrlashni, konservatizmni bartaraf etish orqali biznesni muvaffaqiyatli borishini ta'minlaydi. Agar risk oqibatlarini bartaraf etish maqsadida qabul qilingan qaror uni boshqarishga va kamaytirishga xizmat qilsa, risk konstruktiv shaklda namoyon bo'ladi. Aksincha, o'zini oqlamagan qarorlarni qabul qilish esa riskning destruktiv shakliga mosdir.

Himoya funksiyasi korxonalarining sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizliklarga qarshi munosabatda bo'lishida, chora-tadbirlar ko'rishida namoyon bo'ladi. Ya'ni o'z faoliyatini barqarorlashtirishga, bozorda yuksalish, iste'molchilarini ko'paytirish uchun harakat qiladigan har qanday korxonaning riskka uchrash ehtimolligi ortib boraveradi. Bundan ko'rinadiki, risklar va riskli omillar korxonalarini tashqi ta'sirlardan himoyalashga undamoqda.

Riskning tahlil funksiyasi bevosita qaror qabul qilish jarayoni bilan bog'liq. Qaror qabul qilishi lozim bo'lgan subyekt barcha mumkin bo'lgan muqobil variantlarni tahlil qilib, eng foydali va kam riskli qarorlarni qabul qilishi zarur. Tahlil natijasida riskli vaziyatning yechimi bo'ladigan eng muqobil variant tanlanadi. Bunda tahlil usullaridan keng foydalaniladi. Ya'ni risk samarali qaror, tanlovni amalga oshirishga, eng foydali texnologiyalarni tanlashga harakat qiladigan har qanday korxonani iqtisodiy matematik modellar, iqtisodiy tahlil usullardan, shuningdek, boshqaruv hisobining ko'plab usullaridan foydalanishi lozimligini taqozo etadi.

Korxonalarda risk funksiyalarining samarali amalga oshirilishi risk boshqaruvi mexanizmining to'g'ri yo'lga qo'yilishiga bog'liqdir. Risklarni boshqarishning asosiy afzalliklari va xususiyatlari quyidagi jadvalda tahlil qilib o'tilgan (1-jadval).

1-jadval.

Risklarni boshqarishning asosiy afzalliklari va ularning xususiyatlari (muallif ishlanmasi)

Afzalliklar	Xususiyatlari
Bozorda tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishda noaniqlik darajasini pasaytirish	Noaniqlikning past darajasi, shubhasiz, ishlab chiqarish va moliyaviy menejment tizimida ham, marketing faoliyati davomida ham, korporativ ijtimoiy mas'uliyat dasturlari doirasidagi talablarni qondirishda ham optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilishga olib keladi.
Moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish	Risklarni boshqarish tashkilotdagi to'siqlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bu mablag'larni to'g'ri qayta taqsimlashga va tashkilotning qo'shimcha investitsiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga yordam beradi.
Resurslarni tejash	Risk darajasini pasaytirish resurslarni tejash bilan bevosita bog'liq. Misol tariqasida, kadrlar almashinuvi riskini kamaytirishni keltirishimiz mumkin, bunga erishish tashkilotda professional kadrlar bilan ta'minlash zarurligini optimal hisoblash imkonini beradi.
Maqsadli auditoriya bilan aloqani kuchaytirish	Tashqi muhit sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlardagi riskni kamaytirish biznes jarayonlarini optimallashtirish va sinxronlashtirishga erishish, o'sish strategiyasini amalga oshirishda tashkilotning imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi.

Umumiy holda aytish mumkinki, risk boshqaruvini samarali yo'lga qo'yilsa, risk omillari identifikatsiya qilinib, risk oqibatlari o'rganilsa, shuningdek, ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar (foyda) hajm va qiymat birliklarida o'z ifodasini topsa, korxonaga uchun samarali qaror qabul qilinishiga asos bo'ladi. Fikrimizcha, korxonaning umumiy barqarorligi ishlab chiqarish samaradorligi, har bir bo'lim faoliyatining muvofiqligi va optimal faoliyat yuritishi hamda boshqa ko'plab ko'rsatkichlar qatori korxonaning risk boshqaruvi samaradorligiga ham bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вяткин В.Н. Риск-менеджмент: учебник / В.Н. Вяткин, В.А. Гамза, Ф.В. Маевский. – М.: Юрайт. - 2015. – 351 с.
2. Найт К. Риск-менеджмент - искусство управления // Управление качеством. - 2012. - № 1. - С. 46-50.

3. Гранатуров В.М. Экономический риск: сущность, методы измерения, пути снижения: Учебное пособие. — 2-е изд., перераб и доп. — М.: Издательство «Дело и Сервис», 2002. — 160 с.
4. Макарова Н.Н. Риск-менеджмент: учебное пособие – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2009. – 170 с.
5. Зирченко Л. А. Совершенствование системы управления рисками в процессе развития предпринимательских структур. Дисс. канд. эконом. наук. – Санкт-Петербург, 2019. – 165 с.
6. Севрук В.Т. Риски финансового сектора Российской Федерации: практ. пособие. – М.: Финстатинформ, 2001. - 175 с.
7. Иванов А.А., Олейников С.Я., Бочаров С.А. Риск-менеджмент. Учебно-методический комплекс - М.: Изд. центр ЕАОИ, 2008. – 442 с.
8. Балдин К.В., Белугина В.В., Галдитская С.Н., Передеряев И.И. Банкрот: анализ, анализ, учет и прогнозирование. Учебное пособие. – 2-е изд. – М.: Дашков и Ко, 2008.
9. Севрук В.Т. Банковские риски. Москва: Дело, 1995. - С.
10. Махмудова Н.Ж. ОЦЕНКИ РИСКОВ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ //Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследова. – 2021. – С. 18.



INNOVATIVE
ACADEMY